

XALQ QO'SHIQLARI VA ULARNING TURLARI MAVZUSINI O'RGATISHNING AHAMIYATI

Nazarova Gulchexraxon

Annotatsiya: xalq qo'shiqlari va ularning turlarini o'rgatishning ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Xalq qo'shiqlari har bir millatning madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, ularning tarixi, urf-odatlar va hissiyotlarini ifodalaydi. Maqolada xalq qo'shiqlarining asosiy turlari, jumladan folklor qo'shiqlari, dastanlar, o'yin qo'shiqlari, maqomlar va bayram qo'shiqlari keltirilgan. Shuningdek, maqola xalq qo'shiqlarini o'rgatishning madaniy merosni saqlash, milliy g'ururni rivojlantirish, emotsional rivojlanish, ijtimoiy ko'nikmalarni oshirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirish kabi jihatlari ta'kidlaydi. Xalq qo'shiqlarini o'rganish va ijro etish jarayoni bolalarda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytiradi va ularni milliy qadriyatlarni hurmat qilishga undaydi.

Kalit so'zlar: xalq qo'shiqlari, madaniy meros, maqomlar, bayram qo'shiqlari, o'yin qo'shiqlari, ijodiy fikrlash, urf-odatlar.

Аннотация: посвящена изучению значения обучения народным песням и их видам. Народные песни являются неотъемлемой частью культурного наследия каждого народа и выражают его историю, традиции и эмоции. В статье представлены основные виды народных песен, в том числе фольклорные песни, былины, игровые песни, статусные и праздничные песни. В статье также освещены такие аспекты обучения народным песням, как сохранение культурного наследия, развитие национальной гордости, эмоциональное развитие, совершенствование социальных навыков и развитие творческого мышления. Процесс разучивания и исполнения народных песен укрепляет у детей чувство патриотизма и побуждает их уважать национальные ценности.

Ключевые слова: народные песни, культурное наследие, статусы, праздничные песни, игровые песни, творческое мышление, традиции.

Abstract: dedicated to the study of the importance of teaching folk songs and their types. Folk songs are an integral part of the cultural heritage of every nation and express their history, traditions and emotions. The article presents the main types of folk songs, including folklore songs, epics, game songs, statuses, and holiday songs. The article also highlights aspects of teaching folk songs such as preservation of cultural heritage, development of national pride, emotional development, improvement of social skills and development of creative thinking. The process of learning and performing folk songs strengthens children's sense of patriotism and encourages them to respect national values.

Key words: folk songs, cultural heritage, statuses, festive songs, game songs, creative thinking, traditions.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Inson kayfiyati hayotidagi vaziyatlar ta'sirida o'zgarib turadi. Ob-havo, ona tabiatdagi fasl o'zgarishlari, oiladagi munosabatlar, do'stlarning totuvligi, hatto, notanish odamning bir og'iz so'zi sizning kayfiyatingizni ko'taradi yoki tushiradi. Xursand bo'lgan paytingizda sho'x qo'shiq aytgingiz, raqsga tushgingiz keladi. Noxush damlarda ko'proq jim turib xayol surishni ma'qul ko'rasiz. Bunday daqiqalarda mungli kuy ham sizga tasalli beradi, og'riingizni bir oz yengil qilganday bo'ladi. Ana shunday holat bizning qalbimizda lirik kechinmalarning paydo bo'lishi uchun zamin tayyorlaydi: qo'shiq yaratishga sabab bo'ladi Haqiqiy she'r faqat chuqur ehtiroslar, favqulodda ro'y bergan va inson ruhiga ta'sir ko'rsatgan turmush lavhalari ta'sirida yaratiladi. Bu asarlar ichki kechinmalarga boy bo'ladi. Shuning uchun ular she'riy yoki nasrty shaklda yozilishidan qat'i nazar lirika naminasi deb ataladi. Shunday qilib, atrofda ro'y berayotgan voqea - hodisalarga nisbatan ichki his-tuyg'ular vositasida munosabat bildirgan asarlar lirika atamasi bilan yuritiladi. Bu so'z aslida, "lira" Yunonistondagi qadimiy musiqa asbob nomidan olingan bo'lib, his-tuyg'u, ichki hayajon bilan bog'liqlik ramzi sifatida tushumilgan. Xalq og'zaki ijodidagi qo'shiqlar ham-lirik asarlardir. Chunki ularda Insonning ichki his-tuyg'ulari, kechinmalari aks etadi. Qo'shiq Mahmud Koshg'arining "Devanu lug'otit turk" (1074) asarida, "qo'shug" shaklida uchraydi va she'r, qasida (biron kimsa yoki narsaga atalgan she'r) ma'nosini anglatadi. O'zbek xalqi qadimdan hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan. O'zbekiston hududida ishlab chiqarilgan shohi- alaslar, banoras to'nlar, amaliy san'at namunalari, to'qilgan gilamlar butun dunyoga mashhur bo'lgan. Qadimda o'z hunari bilan nom taratganlar ustalar o'z shogirdlaridan kasbiy ko'nikmalari qatori she'r o'qish, qo'shiq aytish, biron musiqa asbobida kuy chalishni ham talab qilganlar. Ularning fikricha har tomonlama yenik bo'lmagan inson, ayniqsa, estetik RA zavqi yo'q kimsa bironta hunarni ham uquv bilan o'zlashtira olmas ekan. Shuning uchun xalqimiz orasida turli kash bilan shug'ullanayotgan odam bor-ki, qo'shiq aytadi, askiya aytadi, musiqa chaladi. Bu fazilat unga o'zi ishlab chiqariyotgan narsaning go'zal ko'rinishiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Qo'shiq bilan tayyorlanayotgan narsaga ustaning mehri quyiladi. Dunyoda birorta xalq yo'q-ki, turli munosabatlar bilan ommavly bayramlarni nishonlamasin. Mavsumlar, diniy e'tiqodlar, tarixiy voqea-hodisalar, milliy udumlar xalq bayramlari mazmunini tashkil etadi. Binobarin, bayranlarning o'tkazilishiga qarab, ulardagi so'z bilan bog'liq lavhalar mundarijasiga qarab o'sha xalqning tarixi, milliy xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Chunki bunday xalq shodiyonalarida raqsga tushiladi, qo'shiqlar aytiladi, milliy liboslar kiyiladi, turli o'yinlar o'ynaladi, taomlar pishiriladi, tomoshalar uyushtiriladi.

Qo'shiqlarning janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1.Unda inson kechinmalari, quvonch va iztiroblari, qalb so'zlari aks etadi.2.Qo'shiq shaklan she'riy tarzda bo'ladi. O'zbek xalq qo'shiqlari asosan barmoq vaznida, ba'zan aruzda yaratiladi. 3.Ko'pincha xalq qo'shiqlari to'rt misradan iborat bo'lib, tugal ruhiy holatni Ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, bir necha bandlardan iborat biron mavzuga bag'ishlangan qo'shiqlar ham bo'lishi mumkin. Ayni choqda 6, 8 misrali namunalar ham uchraydi. Ular abab yoki aabb; vvgg; to'rt misralilar esa aab; abab, aaaa; aabb va boshqacha ko'rinishda qofiyalanadi.4.Qo'shiqning kuyi bo'ladi va ana shu kuy jo'rligida ijro etiladi.



Xalq qo'shiqlarimizni quydagi turlarga bo'lib o'rganishimiz va tahlil qilishimiz mumkin:

1. Mehnat qo'shiqlari.
2. Mavsum-marosim qo'shiqlari.
3. Lirik (Ishqiy) qo'shiqlar.
4. Tarixiy qo'shiqlar.

Mehnat qoniqar Bochch Xalqlarda bo'lgani kabi mehnat jarayonini o'zida ifodalashi bilan mashhur. Ma'lumki, o'zbek xalqi asarlaridan buyon dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib keladi. Mehnat esa o'ziga yarasha tashvishdan, liro dalilikni namoyish qilishdan, ba'zan insonning o'zini majbur qilishdan iborat bo'ladi. Ayniqsa, kun davomida doimiy ravishda hir xil zerikali harakat qilish odamni toliqtiradi, qilinayotgan ishni to'xtatmagan holda ovunish choralarini topishga majbur qiladi. Ana shunday damlarda eng samarali yechim qo'shiq aytishdan iborat bo'ladi. Tanob-tanob yerga don sochish yoki bug'doy o'rish, chelak-chelak sut sog'ish, metr-metr gilam to'qish faqat aytishga oson. Aslida bu ishlar dehqon, sut sog'uvchi, gilam to'quvchidan katta Jismoniy kuch va malaka talab qiladi. Shuning uchun ajdodlarimiz har bir ishni qo'shiq bilan bajarish ham mehnatning samarali bo'lishini, ham qilinayotgan ishni zerikmasdan bajarish yo'lint o'ylab topganlar. Xalqimiz orasida yashab kelayotgan RA mehnat qo'shiqlari bajariladigan ish sohalariga qarab uch xil bo'ladi:

- Dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari.
- Chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari.
- Kasb-hunar bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari.

Turli sohadagi faoliyat bilan shug'ullangan ajdodlarimiz mashaqqatli va samarasini oshirish maqsadida maxsus o'z kasb- zerikali mehnat jarayonining samarasini oshirish hunarlari bilan bog'liq qo'shiqlar kuylagantar. Mehnat qo'shiqlarida turli hayvonlarni va ish qurollarini erkalash, ularga murojaat qilish, ularni jonlantirish xususiyati etakchilik qiladi. Mehnat qo'shiqlarining tili sodda, kuyi yengil, fikrni ifodalash usuli oddiy bo'lib, asosiy maqsad ish faoliyatini osonlashtirish, qo'shiq aytuvchi shaxs ruhli holatini ko'tarishga qaratilgan bo'ladi. Mavsum-marosiin qo'shiqlari xalq poeziyasining tarkibiy qismini tashkil etadi. Bu qo'shiqlar xalqimizning qadimiy ommaviy bayramlari, oilaviy rasm- rusumlar bilan bog'liqdir. Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk" asarlaridan ma'lum bo'ladi-ki, mavsum va marosimlarga oid xalq qo'shiqlarining tarixi qadim o'tmish zamonlarga borib taqalar ekan. Shu paytlardan buyon mavsumlar almashdi, marosimlar muttasil o'tkaziladi. Bu marosimlarda qo'shiqlar aytiladi. Xalq qo'shiqlari tarixan raqslar bilan ham yaxlitlashgan va albatta, kuylanishga muvofiqlashgani bilan ajralib turadi. Xalq orasida qo'shiq ijrochilari qo'shiqchi, xalifa, satang, go'yanda (nahvagar), ashulakash (ashulachi), laparchi, o'lanchi tarzida farqlanadi. Qo'shiqchi ko'pincha to'rtliklarni ijro etsa-da, aslida nisbatan kengroq ma'noda umuman qo'shiq Ijrochisi va ijodkori bo'lsa, go'yanda (nahvagar) asosan yig'l-yo'qlovlarni kuylashga ixtisoslashgan qo'shiqchidir. Ashulakash yoki ashulachi ko'pincha maqom tarkibidagi qo'shiqlarni yoki katta ashula deyilguvchi jo'isiz ijro etiladigan qo'shiqni kuylay

oladiganlardir. Laparchi raqsga tushgan holda qo'shiq aytuvchi bo'lsa, o'lanchi to'y marosimi qo'shiqlarini ijro etuvchidir. Xalfa Xorazmda keng tarqalgan ayol qo'shiqchiligi bo'lib, ular ham to'y, ham aza qo'shiqlarini barovar ijro etaveradilar. Satang Namanganda xalq qo'shiqlarini doira jo'rligida ijro etuvchi ayollardir. Xalq qo'shiqlari turli joylarda turlicha ijro etiladi. Qo'shiqlar yaratuvchilar va ijro etuvchilarning mehnat faoliyati ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik ishlari, kulolchilik, o'ymakorlik va boshqa san'atlarga bevosita aloqadorligi hamda qadimiy urf-odatlar, xilma-xil marosimlari va e'tiqodlari negizida yashab kelmoqda. Xalq qo'shiqlarini o'rgatish nafaqat musiqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, balki madaniy identitetni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. **Madaniy merosni saqlash.** Xalq qo'shiqlari har bir xalqning tarixiy va madaniy merosini aks ettiradi. Ular asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib, xalqning urf-odatlar, an'analari va hayot tarzi haqida ma'lumot beradi. Yosh avlod uchun bu qo'shiqlarni o'rganish orqali o'z xalqining tarixini, madaniyatini va qadriyatlarini anglash imkoniyati yaratiladi. **Identitetni rivojlantirish.** Xalq qo'shiqlari milliy g'urur va identitetni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'z xalqining musiqasini bilish va qadrlash, shaxsiy identitetni rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa yoshlarni o'z kelajagiga ishonch bilan qarashga undaydi. **Emotsional rivojlanish.** Qo'shiqlar ko'pincha hissiyotlarni ifodalaydi. Ularni o'rganish va ijro etish orqali bolalar va yoshlar o'z his-tuyg'ularini yaxshiroq anglashlari va ifoda etishlari mumkin. Musiqa, ayniqsa xalq qo'shiqlari, ruhiy holatni yaxshilashda va stressni kamaytirishda yordam beradi. **Ijtimoiy ko'nikmalar.** Xalq qo'shiqlarini ijro etish jarayoni ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Guruhda ishlash, hamkorlik qilish va jamoaviy ruhni oshirish orqali yoshlar ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu ko'nikmalar kelajakda ish joyida va shaxsiy hayotda foydali bo'ladi. **Ijodiy fikrlash.** Xalq qo'shiqlarini yaratish yoki ijro etish jarayoni ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi. Yoshlar o'z fikrlarini ifoda etish va yangi g'oyalar yaratishda ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Bu ijodiy jarayon, shuningdek, muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. **Ta'lim jarayonida integratsiya.** Xalq qo'shiqlarini o'rganish boshqa fanlar bilan integratsiya qilish imkonini beradi. Tarix, adabiyot va san'at kabi fanlar bilan bog'liq mavzularni birlashtirish orqali ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin. Bu esa talabalarni kengroq fikrlashga undaydi. **Urf-odatlarini o'rgatish.** Har bir qo'shiq o'ziga xos urf-odatlar, an'ana va hayot tarzini aks ettiradi. Bu orqali yoshlar o'z xalqining urf-odatlarini bilib olishadi va ularni qadrlashga o'rganadilar. Bunday bilimlar, shuningdek, kelajak avlodlarga ham yetkazilishi zarur. **Musiqaga qiziqishni oshirish.** Xalq musiqasi orqali yoshlar musiqa san'atiga qiziqishlarini oshirishi mumkin. Bu esa ularning umumiy madaniy rivojlanishiga yordam beradi. Musiqa bilan shug'ullanish yoshlarning estetik didini shakllantiradi va san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Xalq qo'shiqlari va ularning turlarini o'rgatish nafaqat musiqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, balki madaniyatni saqlash, identitetni shakllantirish va ijtimoiy ko'nikmalarni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Yosh avlod uchun bu jarayon ularga o'z xalqining boy madaniyatini tanitish va uni qadrlashga yordam beradi. Shu sababli, xalq qo'shiqlarini o'rganish va ularga e'tibor berish har bir jamiyat uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi (X.Razzoqov, T.Mirzaev, O.Sobirov, K.Imomov). Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1980 yil. H.Zaripov. Fozillar fazilatı. 1969 yil.
2. M.Qodirov. O'zbek xalq og'zaki dramasi. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1963 yil. 4. ARXIV.UZ M.Afzalov.
3. O'zbek xalq ertaklari haqida. Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1974yil.
4. S B.Sarimsoqov. O'zbek adabiyotida saj. Toshkent, 1978 yil.
5. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/xalq-qo-shiqlari>
6. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/xalq-qo-shiqlari-lirik-janr-sifatida-xalq-qo-shiqlarining-tasnifi-va-badiiy-xususiyatlari>

